

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

5-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) - 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy

kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Abdullaev Ulug‘bek Saydanovich</i> O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDAGI ETNIK NOMLAR	10-14
<i>Shukurillayev Yunus Asrorovich</i> BUXORO AMIRLIGIDA CHEGARALARNI QO‘RIQLASH, QOROVULLIKNI O‘TASH VA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI TAHLILI	15-19
<i>Rahmankulova Adolat Xushbakovna</i> ИСТОРИЯ ГРЕЧЕСКОЙ ДИАСПОРЫ УЗБЕКИСТАНА: СПЕЦПЕРЕСЕЛЕНЦЫ И ПОЛИТИЧЕСКИЕ ЭМИГРАНТЫ	20-25
<i>Xusanov Xabibullo Hakimovich</i> O‘ZBEKISTON MILLATLARARO MUNOSABATLARIDAGI ZIDDIYATLI VAZIYAT VA MILLIY MADANIY MARKAZLARNING TASHKIL QILINISHI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI	26-30
<i>Toshov Kamoliddin, Xurramova Sabrina Abdurashidovna</i> THE PROBLEM OF CHILD NEGLECT DURING THE SECOND WORLD WAR	31-38
<i>Atamuratova Dilafruz Rashidovna</i> THE FORMATION OF THE PRESS OF THE KhPSR AND THE ESSENCE OF SOCIAL PROBLEMS IN IT.....	39-42
<i>Nazirov Baxtiyor, Mo‘minov Nodirbek Botir o‘g‘li</i> IMOMQULIXON DAVRI ASHTARXONIYLAR DAVLATINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA HARBIY-SIYOSIY HAYOTI	43-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Исламутдинов Вадим</i> СОСТОЯНИЕ И НАПРАВЛЕНИЯ СНИЖЕНИЯ БЕДНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	49-54
<i>Melibaeva Gulxon Nazrullayevna</i> BENCHMARKING KICHIK INNOVATSION BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA SAMARALI VOSITASI SIFATIDA.....	55-65
<i>Ульмас Ибрагимов</i> ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОЙ МОДЕЛИ МАЛОГО БИЗНЕСА В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	66-75

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Salomova Hakima Yusupovna</i> ME‘YOR KATEGORIYASINING BIOSFERANI ASRASHDAGI AMALIY AHAMIYATI.....	76-83
<i>Djumaniyozova Dilfuza, Ibraximova Dilorom</i> YURIDIK TA‘LIM VA YURIDIK KLINIKA FAOLIYATIDA AXLOQIY TARBIYA.....	84-90
<i>Djo‘raev Anvar Muxamadiyevich</i> IJTIMOIIY BILISH DARAJALARINING MEZONLARI	91-96

<i>Каримова Гулчехра Самадовна</i> ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЗАДЕРЖКИ ПОЛОВОГО РАЗВИТИЯ У ПОДРОСТКОВ: МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ СИНТЕЗ МЕДИЦИНСКИХ ДАННЫХ И АНТРОПОЛОГО- ЭТИЧЕСКИХ.....	97-101
<i>Гайбуллаев Жавлон Шавкатович</i> ДЫХАНИЕ КАК ЗЕРКАЛО ДЕТСТВА: ФИЛОСОФСКИЙ ВЗГЛЯД НА РЕЦИДИВИРУЮЩИЕ РЕСПИРАТОРНЫЕ ИНФЕКЦИИ.....	102-105
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI.....	106-110
<i>Taylyakova Feruzaxon Sultanovna</i> O'ZBEKISTONDA OILAVIY BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI.....	111-116
<i>Yusupova Ranoxon Tolibjonovna</i> TEXNIK TARAQQIYOT AXLOQIY-STRATEGIK RESURS SIFATIDA.....	117-120
<i>Yarashov Sarvar Norqul o'g'li</i> SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI	121-125
<i>Shokirov Toxirjon, Maxmudov Shoxrux</i> ZARDUSHTIYLIK DININING VUJUDGA KELISHI VA UNDA MADANIYAT VA SAN'AT FALSAFASI.....	126-130
<i>Axmedova Dilbar, Shavkatova Shirin</i> ПЕРВЫЕ ШАГИ В МИКРОМИРЕ: ФИЛОСОФСКИЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ДИСБИОЗЕ И АЛЛЕРГИИ У МЛАДЕНЦЕВ.....	131-135
<i>Kurbanbaeva Ulbosin Jumag'aliyevna</i> EKOLOGIK TARBIYANING GUMANISTIK MOHIYATI.....	136-139
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Muqutova Dilafruz</i> IRFONIY SAYRU SULUKNING JA'FAR MUHAMMAD TERMIZIY SHE'RIYATIDAGI MODERNISTIK TASVIRI VA TALQINI.....	140-147
<i>Xo'jamqulov Anvar, Tog'ayeva Shoxnoza</i> TAXAYYUL OLAMI TAHLILLARI.....	148-159
<i>Murodova Iroda, Khamidov Tokhirjon</i> ANALYSIS OF THE LINGUOCOGNITIVE ASPECT OF THE SEMANTICS OF METAPHORICAL INNOVATIONS	160-163
<i>Mamatova Feruza Maxammadovna</i> FENOMENOLOGIYA, FENOMEN VA ULARNING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	164-168
<i>Burxonova Gulmira Olimjon qizi</i> TURLI TIZIMLI TILLARDA SOTSIOMADANIY BIRLIKLAR SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA TASNIFI	169-172
<i>Berdiqulova Shaxnoza, Ruzmatova Gulnara</i> BOG'LOVCHILAR VA TINISH BELGILARINING PRAGMATIK KUCHI: O'ZBEK VA INGLIZ TILLARI MISOLIDA	173-177
<i>Musurmonova Barchinoy Hasan qizi</i> FORS MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTINING TARIXIY ILDIZLARI.....	178-182

<i>Яркулова Фотима Усмановна</i> ОДНОРОДНЫЕ ЧЛЕНЫ ПРЕДЛОЖЕНИЙ.....	183-186
<i>Jo'raqulova Rayhon Xolboyevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA LEKSIK BIRLIKLAR OBRAZ VA RAMZLARNI YUZAGA KELTIRUVCHI VOSITALAR.....	187-190
<i>Musoeva Hayitgul Urokovna</i> THE LINGUO-STYLISTIC ANALYSIS OF THE WORD "HEART" IN ENGLISH LANGUAGE BASED ON THE NOVEL "PRIDE AND PREJUDICE"	191-195
<i>Yuldasheva Kamola</i> SINXRON TARJIMA JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK STRATEGIYALAR.....	196-202
<i>Matkarimova Malika Oybek qizi</i> HOW TO TEACH ENGLISH USING SIMPLE SCIENCE EXPERIMENTS.....	203-206
<i>Kamola Hatamova</i> HUUJATCHILIK TARAQQIYOTINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	207-210

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Uralov Sharof Urazaliyevich</i> PROBATSIIYA INSPEKTORLARIGAMA MA'MURIY BAYONNOMA TUZISH VAKOLATINI BERISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA AMALIY AHAMIYATI	211-216
<i>Mamatmurodov Farrux</i> METHODS OF RESOLVING DISPUTES ARISING FROM ISLAMIC FINANCE SERVICES. INTERNATIONAL EXPERIENCE	217-222
<i>Mutalipova Lola Farxhadovna</i> SMART-KONTRAKTY I BLOKCHAYN: VYZOVY DLYA DOGOVORNOGO PRAVA V RESPUBLIKE UZBEKISTAN.....	223-234
<i>Normurodova Aziza Azimjon kizi</i> PRAVOVOE REGULIROVANIYE SEKSUALNOGO NASILIYA S ISPOLZOVANIEM .	235-241
<i>Abdullayeva Parvina Baxrilloevna</i> RAQAMLI PLATFORMALARDAGI BANDLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH	242-246

13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> RAQAMI IQTISODIYOT SHAROITIDA QORAQALPOQ XALQ AN'ANALARIDAGI MAVJUD PEDAGOGIK USULLAR TRANSFORMATSIYASI.....	247-252
<i>Namozova Dilorom Tursunovna</i> MUSIQA TA'LIMIDA TALABALARDA IJODIY QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MOHIYATI.....	253-261
<i>Davydova Ruffina Arturovna</i> ROL' GUMANNOY PEDAGOGIKI V PREODOLENIYE AGRESSII I OTCHUZHDENIYA SREDI SHKOL'NIKOV	262-266
<i>Gaziev Baxromjon Valievich</i> OT SPORTIDA MALAKALI CHAVANDOZLARNI TAYYORLASH MUAMMOLARI	267-273

<i>Toshtemirova Mohichehra G'olibjon qizi</i> DIZAYN TA'LIMINING XALQARO TAJRIBASI: O'QUV DASTURLARI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR TAHLILI.....	274-279
<i>Rakhmonova Dilnura Saidovna</i> TEXNIK OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING KREATIV FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI: AMALIYOT VA TAJRIBA.....	280-286
<i>Yakubova Barno Baxtiyorovna</i> MUSTAQIL VA IJODIY ISHLASH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH.....	287-290
<i>Rixsiboyev Behzod Alisherovich</i> IJTIMOIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MADANIY PLYURALIZMNING O'RNI	291-295
<i>Islamova Moxichexra Bekmurzayevna</i> TALABLARNI TANQIDIY FIKRLASHGA UNDOVCHI O'QITUVCHI STRATEGIYALARI	296-301

Received: 2 June 2025
Accepted: 15 June 2025
Published: 30 June 2025

Article / Original Paper

THE INFLUENCE OF MORAL IDEALS AND VALUES EXISTING IN SOCIETY ON THE FORMATION OF THE PERSON

Yarashov Sarvar

Teacher at the non-state higher educational institution
«University of Management and Future Technologies»

Abstract. This article discusses the influence of moral ideals and existing values in society on the formation of personality. The question of what changes in the socio-economic formations of society can lead to changes in the morality of the individual was highlighted. The issue of moral ideals, their influence on society, and the formation of personality was studied. The importance of values and the necessity of choosing them correctly were shown. Moral ideals and their influence on members of society were studied.

Keywords: personality, morality, moral ideal, Erich Fromm, society, influence of the environment, value, usefulness, youth, influence of the formation in society.

SHAXSNING SHAKLLANISHIGA AXLOQIY IDEALLAR VA JAMIYATDA MAVJUD QADRIYATLARNING TA'SIRI

Yarashov Sarvar Norqul o'g'li

«University of Management and Future Technologies»
nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi.
E-mail: sarvaryarashov04@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada axloqiy ideallar va jamiyatda mavjud qadriyatlarining shaxsning shakllanishiga ta'siri muhokama qilinadi. Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarining o'zgarishi shaxs axloqida qanday o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligi masalasi yoritildi. Axloqiy ideallar, ularning jamiyatga ta'siri, shaxsning shakllanishi masalasi o'rganildi. Qadriyatlarining ahamiyati, ularni to'g'ri tanlay olishning zarurligi ko'rsatildi. Axloqiy ideallar va ularning jamiyat a'zolariga ta'siri o'rganildi.

Kalit so'zlar: shaxs, axloq, axloqiy ideal, Erich Fromm, jamiyat, muhit ta'siri, qadriyat, naflilik, yoshlar, jamiyatdagi formatsiyaning ta'siri.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI5Y2025N19>

Inson tug'ilganidan to o'limiga qadar jamiyat ta'sirida bo'ladi. Bu ta'sir turli shakl va yo'nalishlarda; bevosita va bilvosita yuzaga chiqadi. Masalan inson o'zi yashab turgan davrga mos bo'lgan urfda kiyinadi, bu jamiyatning insonga bevosita ta'siriga misol. Bilvosita ta'sir nisbatan murakkab shakllarda namoyon bo'ladi. Quldorlik davri, sotsialistik yoki kapitalistik tuzumda yashagan davr kishilarining axloqiga o'zlari yashagan tuzum katta ta'sir ko'rsatgan.

Faylasuf Erich Frommning "Ozodlikdan qochish" nomli asarida quyidagi fikrlar uchraydi: "Albatta, tabiat tomonidan shartlangan va hamma uchun umumiy bo'lgan ehtiyojlar – ochlik, tashnalik, jinsiy ehtiyoj mavjud, biroq inson xarakterini bir-biridan farqlashga olib keladigan intilishlar – muhabbat yoki nafrat, hokimiyatga tashnalik yoki bo'ysunishga moyillik yoki uning oldida qo'rqish – bularning hammasi ijtimoiy jarayonning mahsulidir. Insonga xos eng go'zal va

eng xunuk jihatlar biologik shartlangan inson tabiatidan kelib chiqmaydi, balki inson shaxsi shakllanishining ijtimoiy jarayoni mahsuli sifatida vujudga keladi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyat faqat bostirish vazifasini bajaribgina qolmay, shaxsni yaratish vazifasini ham amalga oshiradi” [1]. Yuqoridagi jumalardan tushunishimiz mumkinki, insondagi yaxshi va yomon xususiyatlar uni qurshab turgan muhitdan o’zlashtiriladi. Albatta, to’liq bo’lmasa-da, katta qismini. Yoshlik vaqtida bolaga odamlar bilan ko’rishganda salomlashish kerakligi va bu juda ham yaxshi amal ekanligi ota-ona, ustozlar yoki uning atrofidagi kattalar tomonidan o’rgatiladi. Buni bola kattalar o’rgatganidek takrorlaydi. Bu harakati uchun shirinlik, suyib erkalash yoki maqtov shaklida mukofot oladi. Holat tez-tez takrorlanadi. Borib borib endi uni kattalar mukofotlamasa ham o’z-o’zidan salom beradigan bo’ladi. Va bu odatga aylanib, xulq sifatida namoyon bo’lishni boshlaydi.

Iqtisodiy tuzum jamiyatda axloq me’yorlariga o’z ta’sirini ko’rsatadi. So’z yuritayotganimiz Erix Frommning “Ozodlikdan qochish” asarida bu haqda shunday fikrlar bor: “Kapitalizmning iqtisodiy rivojlanishi psixologik atmosferada shunday muhim o’zgarishlarning ro’y berishiga olib keldi. O’rta asrlarning oxiriga kelib, notinchlik ruhi hukm sura boshladi. Hozirgi ma’nodagi vaqt tushunchasi vujudga keldi, daqiqa (minut) lar qadrlana boshladi. Vaqtni bunday yangicha his etishning alomati shunda ediki, Nyurnberg kurantlari ayni XVI asrda har chorak soatda bong ura boshladi. Bayramlar sonining ko’pligi ofat bo’lib tuyula boshladi. Vaqt shu qadar qadrlana boshladiki, uni befoyda sarflash mumkin emas edi. Mehnat tobora eng oliy qadriyatga aylandi. Mehnatga yangicha munosabat rivojlandi. Mehnatga bo’lgan munosabat shu darajaga yetdiki, o’rta sinf cherkov muassasalarining iqtisodiy samarasizligidan darg’azab bo’la boshladi. Qashshoqlashib borayotgan monaxlar ordeni nafrat uyg’ota boshladi: ular ishlab chiqarmas ekanlar, demak, ular axloqsizdir! Samaradorlik eng yuksak axloqiy qadriyatlardan biri bo’lib qoldi. Ayni vaqtda boylik va moddiy yutuqlarga erishish insonning butun vujudini qamrab olgan ehtirosiga aylandi” [2]. E’tibor bering “Samaradorlik eng yuksak axloqiy qadriyatlardan biri bo’lib qoldi” deyilmoqda. Haqiqatan ham kapitalizm hukmronligi sharoitida narsa, hodisa, hattoki inson ham iqtisodiy naf keltirishiga ko’ra qiymatlanadi. Shaxsning shakllanishida muhit eng katta omillardan biridir. Iqtisodiy naflilik asosiy o’lchov bo’lgan jamiyatda tug’ilgan inson uni qurshab turgan muhit ta’sirida boshqalarga shu me’yor asosida qiymat beradi. Qurollar ishlab chiqariladi, so’ngra ularni sotish uchun millati, dini yoki irqi bahona qilinib urushlar hosil qilinadi. Bunday holatlar axloqsizlik va insoniyat uchun uyat. Bu misollar bizga jamiyatda axloq me’yorlari qanday iqtisodiy, siyosiy tuzum bo’lishidan qat’iy nazar birinchi o’rinda turishi lozimligini ko’rsatadi.

Inson shakllanishida tabiiy muhit ta’siri mavjud. Ayni paytda insonning ham o’zi yashab turgan muhitga ta’siri bor. Dastlabki paytlarda insonning tabiatga ta’siri unchalik sezilarli bo’lmagan. Ammo, vaqt o’tishi bilan inson aqli rivojlanib, o’zi va uni qurshab turgan olam haqidagi bilimlari ko’payib bordi. Mehnat va jang qurollari takomillashib bordi. Bu takomillashuv XVI-XVII asrlardan tezlasha boshladi va XIX asr oxiri hamda XX asrdan boshlab fan-texnika sohasi jadal rivojlandi. Fanda qilingan ixtiro hamda kashfiyotlar insonga katta kuch va imkoniyatlar taqdim qildi. Bu holatni faylasuf Bahodir Husanov o’zining “Axloqshunoslik” nomli kitobida shunday izohlaydi: “...Inson endilikda o’zi yashayotgan butun boshli sayyoriga ta’sir ko’rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo’lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o’zgarishlarning asosiy sababiga aylandi” [3]. Endilikda insoniyat oldida unga berilgan bunday katta miqdordagi kuch va imkoniyatlardan qanday qilib

to'g'ri, o'zi va sayyoraga bezarar holatda foydalanish masalasi paydo bo'ldi. Insondagi hokimiyat va boylik istagi uni bor imkoniyatini ishga solib, maqsadiga erishishga undaydi. Bu maqsadga erishish yo'lida ba'zan axloq me'yorlariga zid harakatlar sodir qilingan. Masalan, ikkinchi jahon urishi davridagi natsistlar harakati. Bu davrda Germaniyadagi hukmron toifalar garchi bu umuminsoniy axloq me'yorlariga zid bo'lsada, o'zlarining dunyodagi boshqa xalqlardan ustunligi va dunyoga hokimlik g'oyasini zo'r berib targ'ib qildi. Afsuski, ortlaridan millionlab odamlarni ergashtira oldi. Insoniyatning daho farzandlari tomonidan fan va texnikada qilingan eng so'nggi ixtiro hamda kashfiyotlar shu istakni amalga oshirish uchun insoniyatning o'ziga qarshi ishlatildi. Shu o'rinda bir savol paydo bo'ladi. Nima uchun millionlab odamlar natsistlarga ergashdi? Qanday qilib fan va texnikada ulkan yangiliklarni qilgan fikrli elita ham inson tafakkuri orqali erishilgan kuch va imkoniyatlarning bu dunyodagi oliy mavjudot bo'lgan insonlarga qarshi ishlatilishiga hissa qo'shdi? Bizningcha, hukmron kuchlar ularni bunga majbur qilishgan. Bunday vaziyatda ilmi insonning tutumi qanday bo'lishi kerak? Albatta, insoniyatga qarshi qaratilgan, umuminsoniy axloq me'yorlariga zid bo'lgan har qanday harakatga qarshi turish kerak. Hukmron tuzumning bosimlariga qaramasdan axloq me'yorlaridan chekinmaslik shart. E'tiboringizni bir misolga qaratmoqchiman. Xuddi shu davrda fan tarixida ulkan burilish yasay olgan olim Albert Eynshteyn yashadi. Undan ham o'z ilmini natsistlarning ikkinchi jahon urishidagi g'alabasi uchun ishlatishlarini so'rashdi. Olim bunga rozi bo'lmaydi va natsistlarning ta'qibiga uchraydi. Oxir oqibat omon qolish uchun yurtini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ladi. Albert Eynshteyn hayotini Amerika Qo'shma Shtatlarida davom ettiradi. Urush cho'zilib borardi. Buning ustiga natsistlarning atom bombalarini yasash uchun yaqin qolganligi haqida ham ma'lumotlar bor edi. Shunday vaziyatda Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati ham olimdan bomba loyihasida ishtirok etish va natsistlarni to'xtatishga hissa qo'shishga chaqiradi. Urushning borishi va agar natsistlar yadroviy qurolga ega bo'lsa oqibati qanday bo'lishini olim tushunardi. Shu kabi omillar ta'siri ostida Eynshteyn ham bu kuchni (atom energiyasidan foydalanish) bomba yasashda foydalanilishiga rozi bo'ladi (Shu o'rinda bir ma'lumot: Albert Eynshteyn bomba yasash ishida to'g'ridan to'g'ri qatnashmagan). Natija barchamizga ma'lum. Bomba Yaponiyaning Nagasaki va Xirasima shaharlariga tashlanadi. Minglab tinch aholi halok bo'ladi. Bu hol olimni qattiq vijdon azobiga soladi. Fojiadan keyingi radiodagi nutqida Albert Eynshteyn shunday deydi: "Gugurtning ixtiro qilinishi madaniyat va odamzodga qanday xavf tug'dirsa, uran bo'linishining ochilishi ham shunday xavf tug'diradi. Olamning taqdiri endi fan taraqqiyotiga emas, balki odamzod xulq-atvorining kuchiga bog'liqdir. Bizni endi qurol himoya qilolmaydi, fan ham, Yerning tagiga qochish ham xatardan saqlay olmaydi. Endi bizni tartib va qonunlarga rioya qilishgina halokatdan saqlashi mumkin" [4]. Bir holatga e'tibor bering. Insoniyatga berilgan ulkan kuch va imkoniyatlar davr o'tgani sayin yuksalib bormoqda. Biz XX va XXI asrda insoniyat shu davrga qadar o'tgan vaqt mobaynida hech qachon ega bo'lmagan kuch va imkoniyatlarga ega bo'ldik. Bu imkoniyatlarga ega bo'lishimizda olimlarning hissasi katta bo'ldi. Meni qayg'uga soladigan narsalardan biri shuki, aslida insoniyatning farovonligiga xizmat qilishi kerak bo'lgan kashfiyot va ixtirolar fanda erishilgan yutuqlar birinchilardan bo'lib harbiy sohada tatbiq qilinadi va insoniyatga qarshi qo'llaniladi. Yuqorida eslab o'tganimiz ikkinchi jahon urushida ham shu holat kuzatildi. Sayyorada to'g'ri bir shaklda yashab o'tish uchun zarur bo'lgan tafakkur agar axloq me'yorlariga asosan ishlatilmasa, insoniyatning o'ziga qarshi ishlaydi.

Marhum shoir Abdulla Oripovning “Tafakkur monologi” nomli sherida tafakkur tilidan shunday soʻzlar ishlatiladi:

U goh buyuk erur, goh zabun barbod.
Sira tushunmadim men uni hayhot.
Faqat idrokimga zanjirdir shu gʻam,
Seni eplolmadim, juvonmarg odam!...[5].

Aql ezgulikka ham yovuzlikka ham birday xizmat qilaveradi. Yer yuzida yovuz harakatlarni sodir etuvchi kuchlar ham aql sohiblari. Faqat harakatlarni axloqiy oqibatlariga koʻra emas, oʻzlari uchun foyda keltirishiga koʻra bajaradilar. Bunday kuchlar taʼsiridan yosh avlodni asrash har bir ongli insonning burchidir. Yoshlar axloqiga ijobiy taʼsir qiladigan muhitni paydo qilish harakatida boʻlishimiz zarur. Xulosa oʻrnida Amerika Qoʻshma Shtatlarining birinchi prezidenti Jorj Vashingtonning quyidagi soʻzlarini keltiramiz: “Dinsiz, eʼtiqodsiz axloq boʻladi deb oʻylash — xomxayollikdir. Boylik va farovonlikka yetaklaydigan yoʻllarning har birida biz eʼtiqod va axloqqagina tayanishimiz mumkin”[6]. Bu soʻzlardan ham anglashimiz mumkinki, eʼtiqod va axloq meʼyorlari insoniyat amal qilishi lozim boʻlgan asosiy qoidalardan hisoblanadi.

Jamiyat yoki davlatning rivojlanishi undagi odamlarning qadriyat yoʻnalishlari va axloqiy tamoyillariga bogʻliq. Ayniqsa, yoshlarning dunyoqarashi qanday boʻlishi muhim, chunki mamlakat kelajagi shunga bogʻliq. Hozir yaxlit maʼnaviy-axloqiy moʻljallarning yoʻqligi, moddiy qadriyatlarning ustunligi kuzatilmogʻda, bu esa cheksiz moddiy istaklarni, jismoniy ehtiyojlarni qondirishga, mavjudlikning oliy maqsadlarining bemaʼniligiga olib kelmoqda.

Moddiy qadriyatlarning mutlaq ustunligi inson uchun yomon oqibatlarni keltirib chiqaradi. Sababi inson uchun u harakat qiladigan ideallarning hammasi moddiy va oʻlimdan oldin erishiladigan boʻlsa, inson ularga yetib borishi bilan bu dunyoda mavjudligi qiziqarli boʻlmay qoladi. Uni oldinga undovchi sabab tugaydi. Mavjudligi uchun maʼno topolmay qoladi. Shu nuqtada unga hammasini tugatish fikri kela boshlaydi. Bunday vaziyatdan qutilish uchun inson shunday qadriyatlarga ega boʻlishi kerakki, toki ular insonni har doim mukammallashishga undasin, umrining oxirigacha ularga intilib yashasin. Bulardan koʻrinadiki, qadriyatlar insonga hayotiy moʻljallar olishida koʻrsatkich vazifasini bajaradi. Bu haqda hind mutafakkiri Mohandas Karamchand Gandi shunday degan edi: “Sizning qadriyatlaringiz sizning taqdiringizga aylanadi” [7]. Demak inson qiymatli deb bilgan narsalari, harakatlari, fikrlari, ideallari uning hayotida aks etadi.

Xulosa. Maqolamizning boshida taʼkidlaganimizdek inson jamiyatning taʼsirida yashaydi. U yashayotgan jamiyatda mavjud qadriyatlar uning ham nimani qadriyat sifatida tanlashiga katta taʼsir qiladi. Oʻtmishda va yoki hozir yashayotgan, maʼlum bir sohada jamiyat rivojiga hissa qoʻshgan shaxslar koʻpchilik tomonidan ideal sifatida qabul qilinadi. Ularning xulqlari ularni ideal sifatida koʻruvchilar uchun ham axloqiy namuna sifatida qabul qilinadi. Jamiyatdagi ijtimoiy oʻzaro taʼsirning asoslaridan biri axloqiy qadriyatlarni oʻzlashtirish boʻlib, ularning vorisiyligi anʼanalar bilan taʼminlanadi. Inson maʼnaviy kamolotining ushbu nuqtasi zamonaviy jamiyatda shaxs qadriyat yoʻnalishlarining asosiy sharti asriy maʼnaviy-axloqiy anʼanalarni saqlab qolish boʻlishi kerakligini taʼkidlashga imkon beradi.

Agar inson qadriyatlarni toʻgʻri shakllantira olsa, hayotdagi maqsadini toʻgʻri belgilaydi, yaʼni shaxs boʻlishning toʻgʻri yoʻlida boʻladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Erix Fromm, “Ozodlikdan qochish”. “Yangi asr avlodi”, 2021-y. 30-31-bet.
2. Erix Fromm, “Ozodlikdan qochish”. “Yangi asr avlodi”, 2021-y. 80-81-bet.
3. Abdulla Sher, “Axloqshunoslik”. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2010-y. 316-bet.
4. Chori Nasriddinov, “Inson, Ong, Hayot” T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2010. 33-bet.
5. https://t.me/Abdulla_Oripov_sherlari/406
6. Jorj Vashington (GeorgeWashington) “Farewell Address”, Philadelphia, Penn., September 17, 1796.
7. <https://oftob.com>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/5 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).